

YUSUF XOS HOJIBING “QUTADG‘U BILIG” ASAR MATNIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QO‘LLANILISH SINONIMIYALARI.

Vazira Abdullayeva Quronovna

Qo‘qon Universiteti “Ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida muallif tomonida keltirilgan frazeologiyalarni qo‘llanilish sinonimiyalari xususida fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar: Frazeologiya, frazeologik birikmalar, ko‘chma ma‘no, tarixiy jarayon, frazema, frazema tarkibi, frazeologik monosemiya va frazeologik polisemiya, frazeologik sinonimiyalar.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование синонимов фразеологизмов, приведенных автором в “Кутадгу Билиг” Юсуфа Хоса Хаджиба.

Ключевые слова: Фразеология, фразеологические сочетания, переносное значение, исторический процесс, frazema, frazemный состав, фразеологическая monosemiya и фразеологическая polisemiya, фразеологические синонимии.

Abstract: In this article, Yusuf Khos Hajib's work “Kutadgu bilig” discussed the synonyms of the use of phraseologies given by the author.

Key words: Phraseology, phraseological combinations, figurative meaning, historical process, phraseme, phraseme composition, phraseological monosemy and phraseological polysemy, phraseological synonymies.

Tilshunoslikning asosiy vazifasi matnda til xususiyatlarni tahlil qilish. Tilning eng katta birligi matn hisoblanadi. Tilshunoslikda matnni bir butun sifatda o‘rganish XX asrning 30-yillarida boshlandi. Bunda matnning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarida bog‘liqlik, tilda shaxs ma‘nosini ifodalash, tilning boshqa birliklarini ham o‘rganish o‘ta muhimdir. Matn ustida ishlayotgan tadqiqotchi tilshunoslik sohasining ustasi o‘zi tanlagan yo‘nalish yuzasidan fonetika - fonologiya, leksikologiya, sintaksis, semantika kabilar bilan ishlashida matn tahliliga alohida e‘tibor bermog‘i kerak bo‘ladi.

Xususan, matn tahlil qilinishida bir qator adabiyot namunalarini kuzarib chiqishimiz zarur bo‘ladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarini kuzatish jarayonida asar matnida bir qator semantik ma‘no qurilmalari va unlarining hozirgi o‘zbek tilshunosligi hamda og‘zaki nutqdagi sinonimlarini mavjudligiga e‘tiborimizni qaratamiz.

Tilshunoslikda frazeologiyalar ikki va undan ortiq so‘zlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning ayrimlari gapda sintaktik vazifa keladi.

Jahon tilshunosligida til elementlarining transformatsiyalashi natijasda leksik ma‘noni grammatik ma‘noga transformatsiya qiish (ko‘chish) asosida grammatikalizatsiya hodisasi, birikma ma‘nosining so‘z ma‘nosiga transformatsiya asosida leksikalizatsiya hodisasi yuzaga kelish e‘tirof etiladi. Shuningdek, so‘z birikmasi va frazeologik birliklarning tarkibiy va ma‘noviy transformatsiyasi asosida frazeologizatsiya hodisasi yuzaga keladi.

Sh.Balli frazeologik semantikaning ularning mutlaq belgisi deb e‘tirof etib birikmalarni leksik - grammatik, semantik va sintaktik yaxlit birliklar ekanligini ta‘kidlaydi.

O‘zbek tilshunosligida SH.Raxmatullayev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov kabi tilshunoslar ikki yoki undan ortiq so‘zdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so‘zga muqobil, yaxlitligicha ustama ma‘no anglatadigan lug‘aviy birliklarni frazeologik ob‘ekt deb e‘tirof etadilar. Shu bilan birga Sh.Raxmatullayev frazeologik birliklarning ma‘no tabiatini bittadan ortiq so‘z yaxlitligicha ma‘lum bir obraz asosida, ko‘chirish yo‘li semantik taraqqiyotni boshdan kechiradi deb takidlab muayyan obraz asosida yuzaga kelgan ma‘noni frazeologik ma‘no deb ataydi.¹

¹ B.B.Isaqulova. O‘zbek tili frazeologik birliklarning transformatsiyasi, dissertatsiya avtoreferati, Samarqand,2019,11-b

Frazeologik birliklar oddiy yoki erkin soʻz birikmalaridan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: 1.Oddiy, erkin soʻz birikmasining tuzilishi soʻzlovchining tashabbusi hamda nutq mavzusiga asoslangan holda paydo boʻladi; frazeologik birliklar esa tilda, uning lugʻat tarkibida tayyor holda mavjud boʻladi; gapiruchi bu yerda tashabbus koʻrsatishiga oʻz boʻladi. Bunda soʻzlovchi oʻzining bilim darajasiga koʻra, notiqlik sanʼati va mahoratiga qarab, oʻz fikrni ifoda qilishga omonim, sinonim va antonimlardan oʻz xohish - istagiga qarab foydalanishi mumkin.

2.Erkin soʻz birikmasiga kiruvchi soʻzlar tilda amal qiluvchi leksik-semantik va grammatik distributsiyada boʻysungan holda sintaktik birikmani tashkil etadi.²

Tilshunoslikda frazeologiyalar oʻzaro semantik munosabatlarini ham koʻrish mumkin. Frazemalar (koʻchma maʼnoga ega boʻlgan iboralar) ifoda jihatiga koʻra voqea boʻladigan munosabatlar deb omonimlik, omonimiya va paronimiya hodisalari koʻrsatiladi.

Frazeologik omonimlik erkin bogʻlanma bilan ifoda jihatiga koʻra oʻzaro teng kelishi nazarda tutiladi. Masalan, *kun oʻtdi* erkin bogʻlamasidagi *kun oʻtdi* bogʻlamasi oʻz mustaqil maʼnosini saqlagan holda bogʻlanadi. Frazema yaxlitligicha koʻchma maʼno anglatadi. Yaʼni, *kun oʻtdi - tirikchilik qildi, yaʼni yashadi* maʼnosini anglash mumkin. Bu kabi iboralar tilda bir qanchani tashkil qiladi.

Tilshunoslikda sinonim haqida grekcha soʻzidan olingan boʻlib, “syn” bir va onoma “nom” demakdir. Shakli har xil, bir tushunchani bildiruvchi til birligi sinonim deyiladi.

Tilshunoslikda sinonimiyalarni quyidagicha turlarga boʻlish mumkin:

1.Lugʻaviy sinonimiya, yaʼni soʻz maʼnodoshligi: ish, yumush, gapirmoq, soʻzlamoq.

2.Ibora (frazeologik) maʼnodoshli: boshi osmonga yetdi, terisiga sigʻmadi kabilar.

3. Qoʻshimcha (affiksial) maʼnodoshligi: bu oʻz oʻrnida ikkiga boʻlinadi.

a)soʻz tasovchi qoʻshimcha maʼnodoshligi: -ser, -dor,-siz,-be ;

b)grammatik shakl maʼnodoshligi: - yap,-yotir, -moqda kabilar;

e) sintaktik maʼnodoshligi – bogʻlangan soʻzlardagi maʼnodoshlik uchraydi.

Tilshunoslikda yuqoridagi sinonimlardan lugʻaviy va frazeologik sinonimiyalar uchraydi.

Sinonimlar maʼno xususiyatlarini koʻzda tutib ikki hodisani bir-biridan farqlash lozim:

- tushuncha va soʻz, uning oʻzaro munosabati;

- Soʻz va uning maʼnolari, har bir soʻzning maʼno qirrasini anglanishi.³

Shunga koʻra, bir yoki bir necha jihati oʻzaro farqli frazemalar (frazosememalar) frazeologik sinonimlar deyiladi. Masalan, *ogʻzingga tolqon sol* -, mum tishla, frazemalari ayni bir lugʻaviy maʼnoni - **mutlaq gapirma**, - **suhbatga mutloq qatnashma** – maʼnosini anglatadi.

Frazeologik sinonimlar uch jihatda baholanadi:

1.Lugʻaviy maʼnosi jihatidan. 2 Baho semasi jihatidan. 3. Nutqiy xoslanishi jihatidan.

Matnda bu kabi farzeologik sinonimiyalar maʼno koʻchishini kuchaytirishga xizmat qildi.

Shunga koʻra, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asar matnini kuzatganimizda yuzaga kelgan sinonimik frazeologiyalarni hozirgi adabiy tilda ham bir qator sinonimlarni tashkil qilganini kuzatamiz.

Misol tariqasida “Qutadgʻu bilig” asaridagi *quyosh qaytdi, yana oʻz oʻrniga keldi, baliq quyruʻidan koʻzi burniga keldi* kabi frazeologik iboralarni tahlil qilsak, frazeologik birlik izlari tarixan ham mavjud boʻlganligiga amin boʻlamiz.

² M.Irisqulov.Tilshunoslikka kirish.Toshkent,Yangi avlod, 2008,124-b

³ Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma.Toshkent,Akademnashr, 2012,74-b

Quyosh qaytdi – *qorong’u bo’lishiga ishora, yana o’z o’rniga keldi* – (bu yerda ham) *qorong’i bo’lishi* ma’nolari anglatgan. Ushbu ma’nolarni umumiy qilib keying ko’chma ma’no anglatgan **baliq quyrug’idan ko’zi burniga keldi - qo’ronglik tushushi**) frazeologik sinonimiyasi qo’llash bilan izohlangan. Bunda *baliq quyrug’idan ko’zi burniga keldi* birikmasi frazeologik sinonimiyani yuzaga keltirib, **qorong’u bo’lishiga** ishora qilingan. Ushbu frazeologik birikmada lug’aviy ma’no jihatini tahlil qilingan.

“Qutadg’i bilig” asarida muallif frazeologik sinonimiyalardan juda keng qo’llangan. Bu orqali o’z fikrini o’quvchiga o’ziga xos tarzda ifodalashda, asosan ketirilgan baytlarda frazeologik sinonimiyani qatorini keltirish orqali erishgan.

Илету мене ачты дунйа созин

Айур комедин-му бу хаёян йузин

Ma’nosi:

Osmon qovog’ini soldi, ko’zidan yosh sochmoqda,
Gullar yuz ochdi, boq, kulmoqda qah-qahlamoqda ⁴

Osmon qovog’ini soldi – ko’zidan yosh sochmoqda frazeologik sinonimik qatorni vujudga keltirib – *ob-havoni o’zarishi, ya’ni sovib ketishiga ishora* qilingan. Yoki baytdagi **gullar yuz ochdi – kulmoqda qah-qahlamoqda** birikmalari ham frazeologik sinonimiyani tashkil qilgan.

Bu kabi frazeologik sinonimiyalar quyidagi baytda ham ko’rishimiz mumkin.

Будун тили йавлақ сени созлегей

Киши қылқы киргуч этинни йэгей

Ma’nosi:

Xalqning tili yomon seni so’zlagani so’zlagan
Kishilar fe’li hasadli, u sening etingni yeydi ⁵

Ushbu holatda **xalqning tili yomon – kishilarni fe’li hasadli** frazeologik sinonimiyasini hosil qilgan, axloqi, maqsadi yaxshi emasligi anglatibgina qolmasdan keyingi frazeologik ibora ushbu ma’no ko’chishini izohlab kelgan, ya’ni odamlarning axloq va maqsadi yaxshi emasligi natijada **sening etingni yeydi - halok qiladi, azobga soladi** kabi birikmalar orqali salbiy ma’nolar anglashilgan.

Ko’rinib turibdiki, XI asarda yaratilgan “Qutadg’u bilig” asarining matnida frazeologik sinonimiyalarni juda ko’p foydalanganligini ko’ramiz. Bu kabi frazeologik birikmalar orqali tarixiy davr izlarini his qilamiz. Frazeologik birliklar qadimdan asarning ma’nosini kuchaytirib berishga ko’mak berganligi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarining matnida ufuq turadi. Bu kabi so’z birikmalarini mohirona qo’llanilishi asar tilning jozibadorligini ko’rsatibgina qolmay badiiy obrazlilikni ham yuzaga keltirgan.

Foydalangan adabiyotlar ro’yati:

1. Yusuf Xos Hojib . Qutadg’u bilig. Toshkent, Fan nashiriyoti, 1951.
2. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, Yangi avlod, 2008, 124-b nashiriyoti, 1951.
3. O’zbek tilidan universal qo’llanma. Toshkent, Akademiya nashri, 2012.
4. B. Isaqulova. O’zbek tili frazeologik birliklarning transformatsiyasi, dissertatsiya avtoreferati, Samarqand, 2019.

⁴ Yusuf Xos Hojib . Qutadg’u bilig. Toshkent, Fan nashiriyoti, 1951, 123- b.

⁵ Yusuf Xos Hojib . Qutadg’u bilig. Toshkent, Fan nashiriyoti, 1951, 87- b.